

Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining

2018 yil 14 fevraldagi «O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 fevraldagi «Respublikada soya etishtirish hajmlarini yanada ko`paytirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi

105-sonli qarori haqida»gi 98-sonli qaroriga

o`zgartirishlar kiritish haqida

2018 yil hosili uchun asosiy maydonlarda soya ekinini navlar bo`yicha oqilona joylashtirish, soya doni etishtirish uchun talab etiladigan avans mablag`lari, yoqilg`i-moylash mahsulotlari va mineral o`g`itlar hajmi bo`yicha tumanlar hokimlari va Qishloq va suv xo`jaligi vazirligining (2018 yil 12 martdagi 011/06-462-sonli) takliflarini inobatga olib, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2018 yil 14 fevraldagi «O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 fevraldagi «Respublikada soya etishtirish hajmlarini yanada ko`paytirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 105-sonli qarori haqida»gi 98-sonli qarorining 3-bandi bilan tasdiqlangan 1 va 2-ilovalar ushbu qarorda keltirilgan 1 va 2-ilovalar bilan o`zgartilsin.
2. Vazirlik, idora va tumanlar hokimliklar o`zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarini o`n kun muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.
3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o`rinbosari S.J.Xojametov zimmasiga yuklansin.

Qoraqalpog`iston Respublikasi

Vazirlar Kengashining Raisi

Q.Sariev

Ko`rib chiqildi:

- 
- 
- 

[Vazirlar Kengashi](#) [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
[Vazirliklar va idoralar](#) [Shahar va tuman hokimliklari](#)
[Hujjatlar](#) [Respublika mehmonlariga](#) [Elektron hukumat](#) [Interaktiv davlat xizmatlar](#)